

JUKOVSKAYA KO'CHASIDAN BOSHLANGAN PARVOZ

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti 2-fakulteti 1-bosqich
talabasi Nurmatova Azizaxon Jahongir qizi
nurmatovaazizaxon32@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston xalq shoiri, mohir tarjimon va ssenarist Aleksandr Arkadiyevich Faynbergning serqirra ijodiy merosiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, O'zbekiston xalq shoiri, tarjima san'ati, Alisher Navoiy, Toshkent, ssenariynavislik, Pushkin medali, o'zbek-rus adabiy aloqalari.

Аннотация: Данная статья посвящена многогранному творческому наследию Народного поэта Узбекистана, выдающегося переводчика и сценариста Александра Аркадьевича Файнберга.

Ключевые слова: Александр Файнберг, Народный поэт Узбекистана, искусство перевода, Алишер Навои, Ташкент, сценаристика, медаль Пушкина, узбекско-русские литературные связи.

Abstract: This article is dedicated to the multifaceted creative heritage of Alexander Arkadyevich Feinberg, the People's Poet of Uzbekistan, an outstanding translator, and a screenwriter.

Keywords: Alexander Feinberg, People's Poet of Uzbekistan, art of translation, Alisher Navoi, Tashkent, screenwriting, Pushkin Medal, Uzbek-Russian literary relations.

*“Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l toppish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlashtirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o’rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz.”
(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)*

O'zbekistonning boy va rang-barang she'riyat osmonida o'zining betakror jilosi bilan ajralib turadigan siymolar ko'p. Biroq, ular orasida Aleksandr Arkadiyevich Faynberg nomi alohida e'tirofqa loyiq. O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan bu ulkan ijodkor nafaqat rus tilida ijod qiluvchi lirik shoir, balki o'zbek ruhini rus zabanida tarannum etgan ma'naviy ko'priki hamdir. Faynberg ijodi — o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi adabiy aloqalarning eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, u o'z

asarlarida Toshkent ko'chalari, sharqona falsafa va insoniy samimiyligni uyg'unlashtira oldi.

Aleksandr Arkadiyevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkentda tug'ilgan, uning ota-onasi 1937-yilda Novosibirskdan ko'chib o'tgan. Sobiq Jukovskaya ko'chasida uning bolaligi o'tgan. Yetti yillik maktabni tugatgandan so'ng Aleksandr Faynberg Toshkent Topografiya texnikumiga o'qishga kirdi. Texnikumni tugatgandan so'ng Tojikistonda armiyada xizmat qildi. Keyin Toshkent universitetini (Toshkent Davlat universiteti, hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) tugatdi, u yerda filologiya fakultetining sirtqi jurnalistika bo'limida o'qidi va talabalar ko'p tirajida ishladi. 1961-yilda I. G. Kovalga uylandi. U o'n beshdan ortiq she'riy to'plamlar muallifi, o'nlab badiiy va animatsion filmlar ssenariynavisi. Alisher Navoiydan tortib zamonaviy o'zbek adabiyoti vakillarigacha bo'lgan ijodkorlarning asarlarini rus tiliga mahorat bilan o'girgan tarjimonidir. Uning tarjimonlik faoliyati — bu shunchaki ish emas, bu fidoyilik edi. Navoiydek ulug' zotning g'azallarini rus tilida xuddi o'zbekchasidagidek jaranglatish uchun inson nafaqat tilni, balki shu xalqning ruhini ich-ichidan his qilishi kerak. Faynberg buni uddaladi. Uning 2004 va 2008-yillarda Rossiya Federatsiyasining yuksak mukofoti — Pushkin medali bilan taqdirlanishi ham uning ikki davlat madaniy aloqalari rivojiga qo'shgan ulkan hissasining tasdig'idir.

Faynberg ijodi miqyosi va mazmuni bilan hayratlanarli. U Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg kabi yirik madaniy markazlarda nashr etilgan 15 ta she'riy to'plam muallifidir. „Etyud“ (1967), „Soniya“ (1969), „She'rlar“ (1977), „Olis ko'priklar“ (1978), „Ijobat“ (1982), „Qisqa to'lqin“ (1983), kabi she'riy to'plamlarida inson qalbining eng nozik qirralari va falsafiy mushohadalar aks etgan. Uning she'rlarida Toshkent choyxonalari, palovning hidi va o'zbekona lutf shunday mahorat bilan tasvirlangan, "Rubayat torlari" kabi asarlarni tabassumsiz o'qib bo'lmaydi. Faynberg ssenariysi asosida to'rtta to'liq metrajli badiiy film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan.

1979-yilgi fojia butun o'zbek xalqining dardi edi. Faynberg bu dardni o'ziniki qilib oldi. Uning ssenariysi asosida olingan film va undagi satrlar o'sha yigitlarga qo'yilgan eng go'zal ma'naviy haykal bo'lib qoldi. 1999-yilda „Paxtakor“ futbol jamoasining avtohalokatda halok bo'lganining yigirma yilligi munosabati bilan uning ssenariysi bo'yicha „Osmondagi stadion“ filmi suratga olingan. Faynberg 1979-yilda „Paxtakor“ jamoasi haqida yozilgan qo'shig'i yangragan.

Aleksandr Arkadiyevich Faynberg nafaqat XX asr oxiri va XXI asr boshi o'zbek she'riyatining yirik vakili, balki chinakam ma'nodagi "millat shoiri" darajasiga ko'tarilgan ijodkor edi. Uning 2009-yil 14-oktyabrda vafot etishi adabiyotimiz uchun og'ir judolik bo'lsa-da, u qoldirgan ma'naviy meros hamon yashamoqda.

Faynberg fenomeni quyidagi uchta ustunda namoyon bo'ladi: Sodiqlik: U o'zining tug'ilib o'sgan shahri — Toshkentga va uning ko'p millatli xalqiga umrining

oxirigacha sodiq qoldi. Mahorat: Uning 15 ta she'riy to'plami va tarjimalari o'zbek-rus adabiy aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Navoiy g'azallaridan tortib Erkin Vohidov dostonlarigacha bo'lgan asarlarni rus tilida "qayta tug'iltira oldi". Xotira: Uning ssenariylari asosida suratga olingan filmlar, ayniqsa "Paxtakor-79" jamoasi haqidagi xotiralari xalq xotirasidan hech qachon o'chmaydi.

Faynbergning Pushkin medali bilan taqdirlanishi va O'zbekiston xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lishi uning ikki buyuk madaniyat o'rtasidagi oltin halqa ekanligidan dalolatdir. Uning vafotidan so'ng nashr etilgan ikki jildli asarlar to'plami (2009) kelajak avlodlar uchun shoir qalbining eng samimiy tug'yonlari bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-sheriyati/aleksandrfaynberg-1939-2009>
2. <https://fayllar.org/aleksandr-arkadivich-faynberg-hayoti-ijodiningbugungikundagi-v2.html>
3. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>
4. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg